



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 210 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
Родина Ирина Витальевна	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar	91
Feruz Tohirova	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	104
Nafisa Tuxtasinova	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi	113
Xudayberdiev Inom Xasanovich	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati	117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi	122
Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnika asosidagi assistiv texnologiyalar - "Power band" va "Quvvat qo'lqop" samaradorligi.....	127
Alimardanova Sitara Ikrom qizi, To'rayev Rasul Nortoziyevich	
Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining innovatsion ahamiyati	133
Aminov Botir Umidovich	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish	138
Saydanova Dilafruz Sadirdinovna	
Ilmiy-tadqiqotchi ayollarda akademik o'zlik shakllanishi: O'zbekiston sharoitida motivatsion omillar va ijtimoiy-pedagogik aralashuv zarurati	142
Egamqulova Iroda Safar qizi	
Texnika oliygohlarida nogironligi mavjud talabalarining ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun "Adaptiv tadqiqot" interaktiv metodini ishlab chiqish.....	148
Gimayeva Liliya Maskurovna	
Maktab boshqaruvida raqamli monitoring va tahlil tizimlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi...	153
Imamaliyev Ulugbek Turapbayevich	
Onlayn qimor o'yinlariga tobe bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish tartibi..	157
Olimov Azamat Qahramon o'g'li	
Rusiya o'quvchilarining o'zbekcha bog'lanishli nutqini o'stirishda mashqlarning o'rni	163
Salisheva Zilola Ismoilovna	
Xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari....	169
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi	
Ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik mexanizmlari va kutilgan natijalari	174
Vasilyeva Elmira Raisovna	
The Specifics of the Formation of Systems Thinking in Technical Education, Methods and Means of Development.....	178
Yusupova Liliya Fanovna	
Individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi.....	183
Abdullayev Oybek Alisher o'g'li	

Yaqin masofalarga yugurishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari.....	190
<i>Abduqahhorov Nuriddin Xabibulloyevich</i>	
Darslik yozish mas'uliyati.....	194
<i>Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi</i>	
Mobil ta'lim texnologiyalari vositalari yordamida darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish	198
<i>Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li</i>	
Yengil atletika qisqa masofaga yugurish turini o'rgatishda bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi	202
<i>Omonov Shohrux Orzimurot o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning o'zbek tamaddunidagi o'rni xususida ba'zi mulohazalar	206
<i>Tasbolatova Yeliza Yesey qizi</i>	



INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILAR UCHUN INDIVIDUAL RIVOJLANISH XARITASINI ISHLAB CHIQISH METODIKASI

Abdullayev Oybek Alisher o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan asoslangan. Tadqiqotda individual rivojlanish xaritasi ko'zi ojiz o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari, korreksion rivojlanish dinamikasi hamda ijtimoiy moslashuv darajasini kompleks baholash va rejalashtirish imkonini beruvchi pedagogik vosita sifatida talqin etilgan.

Muallif tomonidan individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqishning ketma-ket bosqichlari, mazmuni, tamoyillari hamda uni amaliyotga joriy etish mexanizmlari yoritilgan. Xaritani ishlab chiqishda pedagogik diagnostika, psixologik tahlil, individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash, rivojlantiruvchi maqsadlarni belgilash, korreksion-pedagogik tadbirlarni rejalashtirish va monitoring jarayonlari yagona tizim asosida integratsiyalashtirilgan.

Shuningdek, individual rivojlanish xaritasining tarkibiy bloklari, baholash mezonlari va monitoring indikatorlari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari individual rivojlanish xaritasi o'quvchilarning bilish faolligini, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini, kommunikativ kompetentligini hamda ijtimoiy moslashuvini izchil rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Taklif etilgan metodika maxsus ta'lim muassasalarida pedagoglar, psixologlar va tiflopedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatini samarali tashkil etishga, ta'lim jarayonini individuallashtirishga hamda o'quv-korreksion ishlarning sifatini oshirishga imkon beradi. Mazkur metodik yondashuv ko'zi ojiz o'quvchilarni kompleks pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: individual yondashuv, individual rivojlanish xaritasi, ko'zi ojiz o'quvchilar, maxsus ta'lim, pedagogik diagnostika, korreksion ta'lim, pedagogik monitoring, individual ta'lim trayektoriyasi, tiflopedagogika, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash.

Abstract: This article provides a scientific and pedagogical justification for the methodology of developing an Individual Development Map for students with visual impairment based on an individualized approach. The Individual Development Map is interpreted as a pedagogical tool that enables comprehensive assessment and planning of students' educational needs, psychological characteristics, corrective development dynamics, and level of social adaptation.

The study describes the sequential stages, content, principles, and implementation mechanisms of developing the Individual Development Map. The proposed methodology integrates pedagogical diagnostics, psychological assessment, identification of individual educational needs, formulation of developmental goals, planning of corrective and pedagogical interventions, and continuous monitoring within a unified educational framework.

Furthermore, the structural components of the Individual Development Map, assessment criteria, and monitoring indicators are presented. The research findings demonstrate that the implementation of the Individual Development Map contributes to improving students' cognitive activity, independent learning skills, communicative competence, and social adaptation.

The proposed methodology facilitates effective collaboration among teachers, psychologists, and specialists in typhlopädagogy within special education institutions, supports the individualization of the educational process, and enhances the quality of corrective and educational activities. This methodological approach has significant scientific and practical value for improving the system of comprehensive psycho-pedagogical support for students with visual impairment.

Key words: individualized approach, Individual Development Map, students with visual impairment, special education, pedagogical diagnostics, corrective education, pedagogical monitoring, individual learning trajectory, typhlopädagogy, psycho-pedagogical support.



Аннотация: В данной статье с научно-педагогических позиций обоснована методика разработки индивидуальной карты развития для незрячих обучающихся на основе индивидуального подхода. Индивидуальная карта развития рассматривается как педагогический инструмент, обеспечивающий комплексную оценку и планирование образовательных потребностей, психологических особенностей, динамики коррекционного развития и уровня социальной адаптации незрячих обучающихся.

Автором раскрыты последовательные этапы разработки индивидуальной карты развития, её содержание, основные принципы и механизмы внедрения в образовательную практику. В процессе разработки карты интегрированы педагогическая диагностика, психологический анализ, определение индивидуальных образовательных потребностей, постановка развивающих целей, планирование коррекционно-педагогических мероприятий и мониторинг результатов в рамках единой системы.

Кроме того, предложены структурные блоки индивидуальной карты развития, критерии оценки и показатели мониторинга. Результаты исследования свидетельствуют о том, что использование индивидуальной карты развития способствует повышению познавательной активности обучающихся, развитию навыков самостоятельного обучения, коммуникативной компетентности и успешной социальной адаптации.

Предлагаемая методика позволяет эффективно организовать совместную деятельность педагогов, психологов и тифлопедагогов в специальных образовательных учреждениях, индивидуализировать образовательный процесс и повысить качество коррекционно-педагогической работы. Представленный методический подход имеет важное научно-практическое значение для совершенствования системы комплексного психолого-педагогического сопровождения незрячих обучающихся.

Ключевые слова: индивидуальный подход, индивидуальная карта развития, незрячие обучающиеся, специальное образование, педагогическая диагностика, коррекционное обучение, педагогический мониторинг, индивидуальная образовательная траектория, тифлопедагогика, психолого-педагогическое сопровождение.

KIRISH

Bugungi kunda maxsus ta'lim tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarga individual yondashuv asosida ta'lim-tarbiya berishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Jahon amaliyotida inklyuziv va maxsus ta'limni rivojlantirish jarayonlari ta'limning mazmuni va shakllarini o'quvchining individual imkoniyatlari, rivojlanish sur'ati hamda psixofiziologik xususiyatlariga moslashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, ko'zi ojiz o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-korreksion ishlarni rejalashtirish, amalga oshirish va monitoring qilishda individual rivojlanish xaritasidan foydalanish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ko'zi ojiz o'quvchilarning rivojlanishida kuzatiladigan o'ziga xos psixologik va pedagogik xususiyatlar ta'lim jarayonini standart yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatlarini cheklaydi. Ko'rish analizatori faoliyatidagi buzilishlar nafaqat bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga, balki fazoda mo'ljal olish, muloqot qilish, mustaqil faoliyatni tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada har bir o'quvchining rivojlanish dinamikasi, ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini muntazam tahlil qilib borish hamda ular asosida individual rivojlanish strategiyasini belgilash zarurati yuzaga keladi.

Mamlakatimizda maxsus ta'lim tizimini rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, pedagogik diagnostikani takomillashtirish, individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va korreksion-pedagogik faoliyatni tizimli tashkil etishni taqozo etmoqda. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish individual rivojlanish xaritasini ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni talab qiladi.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab maxsus ta'lim muassasalarida o'quvchilarning rivojlanishini baholash bo'yicha turli diagnostik ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ularni yagona metodik tizimga birlashtiruvchi, pedagogik, psixologik va korreksion faoliyatni o'zaro integratsiyalovchi individual rivojlanish xaritalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Natijada o'quvchi rivojlanishining uzoq muddatli monitoringini olib borish, individual ta'lim trayektoriyasini belgilash hamda korreksion ishlar samaradorligini baholashda ayrim qiyinchiliklar kuzatilmoqda.

Individual rivojlanish xaritasi faqatgina diagnostik hujjat emas, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilovchi, pedagogik qarorlar qabul qilishni ilmiy asoslovchi va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kompleks metodik vosita hisoblanadi. Mazkur xarita orqali o'quvchining boshlang'ich rivojlanish darajasi aniqlanadi, qisqa va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari belgilanadi, korreksion-pedagogik tadbirlar rejalashtiriladi, monitoring natijalari muntazam qayd etiladi hamda zarur hollarda individual ta'lim yo'nalishiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.



Shu bois maqolaning maqsadi individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasini ilmiy jihatdan asoslash, uning tarkibiy tuzilmasini, ishlab chiqish bosqichlarini, pedagogik tamoyillarini hamda maxsus ta'lim amaliyotida qo'llash mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'zi ojiz o'quvchilarni individual yondashuv asosida o'qitish va rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda maxsus pedagogika, tiflopedagogika hamda pedagogik psixologiya yo'nalishlarida dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarning rivojlanish jarayoni standart ta'lim modeli asosida emas, balki shaxsning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim tizimi orqali samarali tashkil etilishi ta'kidlanadi. Shu sababli individual rivojlanishni rejalashtirish, monitoring qilish va baholashga xizmat qiluvchi pedagogik vositalarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar tobora kengayib bormoqda.

Xorijiy tadqiqotlarda individual rivojlanishni rejalashtirishning nazariy asoslari, asosan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, inklyuziv ta'lim hamda universal dizayn konsepsiyalari bilan bog'liq holda yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda Individual Education Plan (IEP), Personalized Learning Plan hamda Learner Profile kabi hujjatlar o'quvchining individual ehtiyojlarini aniqlash va ta'lim jarayonini moslashtirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Biroq mazkur ishlarda ko'proq ta'lim mazmunini individuallashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan bo'lib, ko'zi ojiz o'quvchilarning korreksion rivojlanishini pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan yagona tizimda monitoring qilish mexanizmlari yetarlicha yoritilmagan.

Rossiya tiflopedagogika maktabi vakillari ko'zi ojiz bolalarni rivojlantirishda korreksion-rivojlantiruvchi ta'limning ustuvorligini asoslab, pedagogik diagnostika, kompensator mexanizmlarni rivojlantirish hamda fazoda mo'ljall olish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha muhim ilmiy natijalarga erishganlar. Mazkur tadqiqotlar ko'zi ojiz o'quvchilarning rivojlanishini kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqishning yaxlit metodik algoritmi hamda uning pedagogik monitoring tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

O'zbekiston olimlari tomonidan maxsus pedagogika, tiflopedagogika va inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Tadqiqotlarda ko'zi ojiz bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish, korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish, tiflotexnik vositalardan foydalanish, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash hamda individual yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari keng yoritilgan. Mazkur ilmiy ishlarda individual yondashuvning ahamiyati asoslangan bo'lsa-da, individual rivojlanish xaritasini pedagogik diagnostika, rejalashtirish, monitoring va korreksion faoliyatni yagona metodik tizim sifatida integratsiyalashgan holda ishlab chiqish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha ochib berilmagan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, individual rivojlanish xaritasi ko'pincha diagnostik hujjat yoki individual ta'lim rejasining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Holbuki, zamonaviy maxsus ta'lim sharoitida u pedagogik diagnostika, rivojlantiruvchi maqsadlarni belgilash, individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash, korreksion ishlarni rejalashtirish, pedagogik monitoring hamda natijalarni baholashni o'zaro bog'lovchi kompleks metodik vosita sifatida qaralishi zarur.

Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, unda individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqishning metodik modeli taklif etiladi. Taklif etilayotgan metodika pedagogik diagnostika natijalarini rivojlantiruvchi maqsadlar, korreksion tadbirlar, monitoring indikatorlari va baholash mezonlari bilan uzviy bog'lagan holda individual rivojlanish jarayonini uzluksiz boshqarish imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur yondashuv mavjud ilmiy ishlardan farqli ravishda individual rivojlanish xaritasini nafaqat hujjat, balki o'quv-korreksion jarayonni boshqarishning kompleks pedagogik texnologiyasi sifatida talqin etadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi individual yondashuv tamoyili, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, tizimli-faoliyatli yondashuv hamda pedagogik diagnostikaning uzluksizligi tamoyillariga asoslandi. Metodologiya bosh g'oyasi ko'zi ojiz o'quvchining rivojlanishini alohida yo'nalishlar bo'yicha emas, balki o'zaro bog'liq bo'lgan pedagogik, psixologik, korreksion va ijtimoiy komponentlarning yagona tizimi sifatida baholash hamda boshqarishdan iborat.

Mazkur tadqiqotda individual rivojlanish xaritasi o'quvchining rivojlanish holatini aks ettiruvchi oddiy hujjat sifatida emas, balki pedagogik qarorlar qabul qilish, korreksion ta'limni rejalashtirish, rivojlanish dinamikasini monitoring qilish hamda individual ta'lim trayektoriyasini boshqarishga xizmat qiluvchi metodik vosita sifatida talqin qilindi.



Shu asosda individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqishning yetti bosqichli metodik algoritmi ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm: Individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish algoritmi

Mazkur algoritmnin asosiy afzalligi shundaki, u individual rivojlanish xaritasini statik hujjatdan dinamik boshqaruv vositasiga aylantiradi. Algoritm pedagogik diagnostika, ta'limni rejalashtirish, korreksion faoliyat, monitoring va qayta aloqa jarayonlarini yagona metodik tizimga integratsiyalash imkonini beradi. Natijada individual rivojlanish xaritasi o'quvchining rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish, ta'lim mazmunini moslashtirish hamda pedagogik qarorlarni ilmiy asoslashga xizmat qiluvchi kompleks metodik vositaga aylanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi amaliyotga tatbiq etildi hamda uning pedagogik samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual rivojlanish xaritasi o'quvchi faoliyatining alohida yo'nalishlarini emas, balki uning intellektual, korreksion, kommunikativ, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini yagona tizim asosida boshqarish imkonini beradi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy rejalashtirishda pedagog faoliyati, asosan, o'quv dasturi mazmuniga yo'naltiriladi. Individual rivojlanish xaritasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida esa markaziy obyekt sifatida o'quvchining shaxsiy rivojlanish dinamikasi qaraladi. Bu esa pedagogik qarorlarni qabul qilishda diagnostik ma'lumotlardan tizimli foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur metodika asosida ishlab chiqilgan individual rivojlanish xaritasi oltita o'zaro bog'liq funksional blokdan tashkil topdi (1-jadval).

1-jadval: Individual rivojlanish xaritasining funksional tuzilmasi

Blok	Mazmuni	Natijasi
Diagnostik blok	O'quvchining rivojlanish darajasini aniqlash	Boshlang'ich diagnostik portret
Prognostik blok	Individual rivojlanish maqsadlarini belgilash	Individual rivojlanish trayektoriyasi
Rejalashtirish bloki	Pedagogik va korreksion tadbirlarni ishlab chiqish	Individual rivojlantirish dasturi
Amalga oshirish bloki	Ta'lim va korreksion faoliyatni tashkil etish	Individual pedagogik qo'llab-quvvatlash
Monitoring bloki	Rivojlanish dinamikasini baholash	Oraliq natijalar
Korreksion blok	Metodikaga o'zgartirishlar kiritish	Yangilangan rivojlanish xaritasi

Taklif etilgan tuzilma individual rivojlanish xaritasining barcha komponentlarini yagona boshqaruv sikliga birlashtiradi. Har bir blok keyingi bosqich uchun axborot bazasini yaratadi va o'quvchining rivojlanishidagi o'zgarishlarga mos ravishda pedagogik faoliyatni moslashtirish imkonini beradi.



Metodikani amaliy sinovdan o'tkazish jarayonida individual rivojlanish xaritasi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha shakllantirildi:


- bilish faoliyatining rivojlanishi;
- Braille o'qish va yozish ko'nikmalari;
- fazoda mo'ljal olish;
- mayda qo'l motorikasi;
- nutq va kommunikativ kompetentlik;
- o'quv motivatsiyasi;
- mustaqil faoliyat;
- ijtimoiy moslashuv.

Har bir yo'nalish bo'yicha boshlang'ich holat, rejalashtirilgan natija, amalga oshiriladigan pedagogik tadbirlar, monitoring muddati hamda baholash mezonlari individual rivojlanish xaritasida aks ettirildi. Bunday yondashuv rivojlanishning barcha komponentlarini muntazam kuzatish va zarur hollarda korreksion ishlarni o'z vaqtida takomillashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida individual rivojlanish xaritasining samaradorligini baholash uchun to'rtta mezon ishlab chiqildi:

- diagnostik mezon - rivojlanish darajasini aniqlashning aniqligi;
- prognostik mezon individual maqsadlarning asoslanganligi;
- protsessual mezon - pedagogik tadbirlarning bajarilish sifati;
- natijaviy mezon - o'quvchining rivojlanish dinamikasi.

Har bir mezon bo'yicha indikatorlar tizimi ishlab chiqildi va uch darajali baholash shkalasi qo'llanildi (yuqori, o'rta va boshlang'ich). Mazkur tizim pedagoglarga nafaqat o'quvchining joriy rivojlanish holatini baholash, balki rivojlanish sur'atlarini tahlil qilish hamda keyingi pedagogik faoliyatni rejalashtirish imkonini berdi.



2-rasm: Individual rivojlanish xaritasining konseptual modeli

Metodikaning muhim afzalliklaridan biri pedagog, psixolog, tiflopedagog, sinf rahbari va ota-onalar faoliyatini yagona individual rivojlanish xaritasi orqali muvofiqlashtirish imkoniyatidir. Bunday integratsiya natijasida barcha mutaxassislar bir xil diagnostik ma'lumotlar va rivojlanish maqsadlari asosida faoliyat olib boradi. Natijada korreksion ta'limning izchilligi ta'minlanadi, takroriy pedagogik ta'sirlar kamayadi hamda individual rivojlanish monitoringining uzluksizligi ta'minlanadi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan metodika individual rivojlanish xaritasini faqat hisobot hujjati sifatida emas, balki o'quv-korreksion jarayonni boshqaruvchi pedagogik texnologiya sifatida qo'llash imkonini beradi. Mazkur yondashuv ko'zi ojiz o'quvchilarning individual imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, korreksion ishlarning samaradorligini oshirish hamda ta'lim jarayonining sifatini takomillashtirish uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi maxsus ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning samarali vositalaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Individual rivojlanish xaritasi o'quvchining pedagogik, psixologik va korreksion rivojlanish ko'rsatkichlarini yagona tizimda baholash, rivojlanish dinamikasini muntazam monitoring qilish hamda individual ta'lim trayektoriyasini bosqichma-bosqich takomillashtirish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodika individual rivojlanish xaritasini shakllantirishning ketma-ket bosqichlarini, funksional bloklarini, monitoring mexanizmini hamda baholash mezonlarini yagona metodik tizim sifatida integratsiyalash imkonini berdi. Taklif etilgan yetti bosqichli algoritm pedagogik diagnostika, individual ehtiyojlarni aniqlash, rivojlantiruvchi maqsadlarni belgilash, korreksion-pedagogik tadbirlarni rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring hamda refleksiv korreksiya uzviy bog'lagan holda o'quvchining rivojlanishini uzluksiz boshqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual rivojlanish xaritasidan tizimli foydalanish pedagogik qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslanganligini oshiradi, o'quvchining bilish faoliyati, Braille savodxonligi, fazoda mo'ljal olish ko'nikmalari, mayda qo'l motorikasi, kommunikativ kompetentligi, o'quv motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvining rivojlanish dinamikasini kompleks baholash imkonini yaratadi. Shuningdek, mazkur metodika pedagog, psixolog, tiflopedagog va ota-onalar faoliyatini yagona maqsad hamda umumiy monitoring tizimi asosida muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi individual rivojlanish xaritasini faqat diagnostik yoki hisobot hujjati sifatida emas, balki o'quv-korreksion jarayonni boshqaruvchi kompleks pedagogik texnologiya sifatida asoslashda namoyon bo'ladi. Taklif etilgan konseptual model, funksional bloklar tizimi, diagnostik indikatorlar, baholash mezonlari hamda monitoring mexanizmi individual rivojlanishni boshqarishning yaxlit metodik asosini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, individual yondashuv asosida ishlab chiqilgan individual rivojlanish xaritasi metodikasi ko'zi ojiz o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, individual ta'lim trayektoriyasini ilmiy asosda loyihalash, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashni tizimli tashkil etish hamda o'quv-korreksion jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodik yechim sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida: PF-158-son Farmoni. - Toshkent, 2023. - 11-sent.
2. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun: O'RQ-637-son. - Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun: O'RQ-641-son. - Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishni tashkil etish to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar. - Toshkent, 2021.
5. Abdullaeva Sh. A. Tiflopedagogika. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2021. - 312 b.
6. Айзенберг А. Г. Основы тифлопедагогики. - Москва : Владос, 2018. - 296 с.
7. Выготский Л. С. Основы дефектологии. - Москва : Юрайт, 2023. - 365 с.
8. Земцова М. И. Пути компенсации слепоты в процессе познавательной деятельности. - Москва : Просвещение, 2019. - 248 с.
9. Ермаков В. П., Якунин Г. А. Развитие, обучение и воспитание детей с нарушениями зрения. - Москва : Владос, 2020. - 304 с.
10. Литвак А. Г. Психология слепых и слабовидящих. - Санкт-Петербург : Речь, 2022. - 396 с.
11. Плаксина Л. И. Теоретические основы коррекционной работы в школах для детей с нарушением зрения. - Москва : Академия, 2021. - 318 с.
12. Солнцева Л. И. Современная тифлопедагогика. - Москва : Просвещение, 2022. - 352 с.
13. Феоктистова В. А. Психолого-педагогическое сопровождение детей с нарушением зрения. - Санкт-Петербург : РГПУ, 2020. - 286 с.



14. Qodirov I. D. Maxsus pedagogikaning nazariy asoslari. - Chirchiq : CHDPU, 2023. - 284 b.
15. Nuritdinova Sh. N. Inklyuziv ta'lim pedagogikasi. - Toshkent : Innovatsiya-Ziyo, 2022. - 256 b.
16. Xamidov X. X. Pedagogik diagnostika va monitoring. - Toshkent : Fan, 2021. - 240 b.
17. Abdullayev O. A. Individual yondashuv asosida o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning ilmiy-metodik asoslari // Pedagogik mahorat. - 2025. № 4. - B. 82-89.
18. Mitchell D. What Really Works in Special and Inclusive Education. - 3rd ed. - London : Routledge, 2020.
19. Tomlinson C. A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. - 3rd ed. - Alexandria : ASCD, 2017.
20. Loreman T., Deppeler J., Harvey D. Inclusive Education: Supporting Diversity in the Classroom. - 3rd ed. - London : Routledge, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.